

XORIJIY TILLARNI ERTA YOSHDAN BOSHLAB O‘RGANISH: FOYDA VA XAVFLAR

Esonaliyeva Husnida

O‘zDJTU talabasi

Ilmiy maslahatchi: Erdanova Zebiniso Abulkasimovna

f.f.f.d.(PhD), O‘zDJTU

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini bolalarga erta yoshdan boshlab o‘rgatish, uning foydalari va bu orqali sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ba’zi salbiy oqibatlar, ularning oldini olish va o‘rgatish jarayonini to‘g‘ri metodlardan foydalangan holda qiziqarli va samarali tashkil etish borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Prezident, Spelling Bee, Brilliant Minds, CLIL texnologiyasi, Massachusetts texnologik universiteti, “oltin o‘rta”, amerikalik olimlar, keng dunyoqarash, salbiy jihatlar, tavsiyalar, elektron o‘yinlar, “Kahoot”, “Wordwall”.

Abstract: This article discusses teaching foreign languages to children from an early age, its benefits and some of the negative consequences that can occur as a result, how to prevent them, and how to make the teaching process interesting and effective using the right methods.

Keywords: President, Spelling Bee, Brilliant Minds, CLIL technology, Massachusetts Institute of Technology, "golden mean", American scientists, broad outlook, negative aspects, recommendations, electronic games, "Kahoot", "Wordwall".

Introduction

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda chet tillarini o‘rganish faqatgina ehtiyoj emas, balki talab darajasiga chiqayotgani hech kimga sir emas. Jamiyatning qaysi sohasida bo‘lishidan qat’i nazar, bir nechta tillarni bilgan insonlarga talab yuqori, albatta. Ayniqsa, kundan kunga kengayib borayotgan biznes va xalqaro sayohatlar yanada qulay bo‘lib borayotgani sababli turli madaniyat va odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati muvaffaqiyatning asosiy mahoratiga aylandi. Bundan tashqari, karyera imkoniyatlarini oshirish uchun ham chet tilini bilish juda muhimdir: kompaniyalar turli mamlakatlardagi mijozlar yoki hamkorlar bilan muloqot qila olasiz, til o‘rganish orqali chet elda ishlash va yashash imkoniyatlariga ega bo‘lasiz. Til o‘rganishning foydalaridan yana biri shuki, u miyadagi neyroplastiklik jarayonini faollashtirib, xotiraga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu atamani oddiyroq tushunchalar prizmasi orqali ko‘rish mumkin. Oddiy qilib aytganda, yangi tilni o‘rganish xotirangizni yangi so‘zlar va tuzilmalarni eslab qolishga o‘rgatadi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o‘qitishni rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikma

va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarurligi ko'p bora ta'kidlanmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz bolalarimiz maktabdan chet tillarni, kasb-hunar va kompyuter savodxonligini puxta o'rganib chiqsa, jamiyatda ijobiy o'zgarishlar, yuksak taraqqiyot bo'lishini, bugungi bolalarimiz kamida ikkita xorijiy tilni bilishlari lozimligini uqtirmoqda. Ta'kidlash lozimki, bir vaqtlar mamlakatimizda ingliz tili barobarida fransuz, nemis, ispan tillari o'rganilar edi. Afsuski, keyingi yillarda ingliz tilidan boshqa tillarni o'rganish rag'batlantirilmadi. Oldin yo'l qo'yilgan xatolar bu tillarni maktablarda deyarli o'qitilmaslikka olib keldi. Ammo bu kabi holatlar yildan yilga bartaraf etilib, xorijiy tillarning o'qitilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktab o'quvchilari o'rtasida Spelling Bee, Brilliant Minds fan olimpiadalarini o'tkazish, maktabdan xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan o'quvchilarni saralab olib, xorijiy tilda Content and Language Integrated Learning (kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish) — CLIL texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish, maktab o'quvchilarida “Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical thinking)”, Kollaboratsiya (Team Work) (jamoaviy ishlash), Kreativlik (Creativity – ijodkorlik), Kommunikatsiya (Communicative skills – muloqot ko'nikmalari)”ni shakllantiruvchi metodlar yuzasidan bahs-munozara o'tkazish, xorijiy tillarni o'qitishda blended learning (aralashirilgan o'rganish), flipped learning (aylantirilgan o'rganish) texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'quv jarayoniga keng tatbiq etish kabi jarayonlarda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari maktab o'qituvchilari bilan yonma-yon faoliyat yuritishi yaxshi samara berishiga ko'plab ta'kidlanmoqda.

Xorijiy tillarni bilish insonning bilim doirasini kengaytiradi, u zamonaviy dunyoda zarur va foydali ko'nikma hisoblanadi. Shunday ekan, shu o'rinda bir savol paydo bo'lishi tabiiy: chet tillarini o'rganishni qachon va qanday boshlash kerak? Uni erta yoshdan o'rganish shu qadar muhimmi? Hozir siz bilan bu savolga javoblarni ko'rib chiqamiz.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bolalar miyasi erta yoshda juda moslashuvchan (plastik) bo'ladi. Ular yangi tovushlar, talaffuz va grammatikani tezda o'zlashtira oladilar. Bu yoshda tilni tabiiy yo'l bilan, o'yin orqali o'rganish oson kechadi. Ular chet tilini erta yoshda o'rgansa, uni ona tilidek to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati yuqori bo'ladi. Katta yoshda esa bu ko'nikmani rivojlantirish ancha qiyin bo'ladi. Bolalar til o'rganishda xatolardan qo'rqmaydi, bu esa ularni tez va bema'lol gapirishga undaydi. Kattalarda esa bu xatoliklardan uyalish holati bo'lishi mumkin. Erta yoshda bir nechta til o'rgangan bola keyinchalik boshqa tillarni ham osonroq o'zlashtira oladi. Bu esa uning kelajakdagi ta'lim, ish va madaniy aloqalarida katta ustunlik beradi. Chet tilini o'rganish bolalarning mantiqiy fikrlash, muammo hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Olimlar til o‘rganish xotiraning mustahkamlanishi, diqqatni jamlash, ijodiy va tasavvur boyligining o‘sishi, nutqning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotlashgan. Chet tilini o‘rganishni erta boshlagan bolalar odatda tengqurlariga qaraganda yuqori aqliy salohiyatga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, til o‘rganish jarayonining o‘zi bolaga ko‘plab ijobiy kechinmalar ulashadi.

Bola miyasi tez moslashuvchan bo‘lib, har qanday faoliyat turini ham oson o‘zlashtira oladi. Bugungi kunda ko‘pchilik ota-onalar farzandlariga aynan necha yoshdan til o‘rgatishni boshlash haqida bosh qotirmoqda. Bu borada butun dunyoda turli qarashlar mavjud.

AQSHning Massachusetts texnologik universiteti neyro- va kognitiv fanlar markazi mutaxassislari xorijiy tillarni o‘rganishni boshlash uchun eng yaxshi yoshni ma‘lum qilishgan. Natijada, xorijiy tilni o‘sha tilda so‘zlashuvchilar kabi mukammal egallashda eng katta imkoniyatlarga tilni o‘rganishni 10 yoshgacha boshlaganlar egaligi aniqlangan. 18 yoshdan keyin ham tilni tez o‘rganishga layoqat saqlanib qoladi, biroq uni mukammal egallash ancha qiyinroq bo‘ladi.

Aslida, til o‘rganishga hech qachon kech emas. Ammo bolaning miyasi taxminan 3 yoshdan 10 yoshgacha barcha yangilik va bilimlarni singdirib oladi. Bolaning 5 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan davrini lingvist-pedagoglar “oltin o‘rta” — ya‘ni chet tilini o‘rganish uchun eng yaxshi davr deb hisoblaydilar. Chunki bu davrda aksariyat bolalar o‘z ona tilini yaxshi o‘zlashtirib, nutq nuqsonlaridan xalos bo‘ladilar, nutqi boy va ifodali bo‘la boshlaydi. Chet tilini o‘rganishda ko‘r-ko‘rona yodlash emas, ongli ravishda munosabatda bo‘lish samaraliroq. Fikrlash “yetuklik” ham talab etadi, jumladan, diqqatni jamlay olish muhimdir. Besh yoshli bolada bu kabi ko‘nikmalar to‘liq bo‘lmasa-da, shakllanib bo‘ladi. Bolaning ijtimoiy moslashuvi, ya‘ni guruhda o‘zini tuta bilishi zarur, chunki til o‘rganish boshqa bolalar bilan muloqotni talab etadi, deydi tadqiqotchilar.

Til o‘rganishning yoshga qanday aloqadorligi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Shular qatorida amerikalik olimlar til o‘rganishni necha yoshdan boshlash kerak, degan savolga javob izlashdi. Ular turli jins, yosh va millat vakillaridan iborat 670 ming nafar ko‘ngillining ma‘lumotlarini o‘rganib chiqishdi. Sinovda qatnashganlarning eng kichigi 10, eng kattasi 70 yoshda edi. Tadqiqot natijalari “Cognition” jurnalida chop etildi.

Aniqlanishicha, xorijiy til bolalikda — o‘n yoshgacha bo‘lgan davrda yaxshi o‘zlashtiriladi. Albatta, yoshi ulug‘larda ham til o‘rganish qobiliyati saqlanib qoladi, biroq chet tilini asl til egalari darajasida o‘zlashtirish uchun harakatni bolalikda boshlash zarur.

Keling, erta til o‘rganishning ijobiy tomonlarini birma-bir ko‘rib chiqamiz:

1. Talaffuzning mukammalligi. Erta yoshda til o‘rganayotgan bolalar tovushlarni aniq eslab qoladi va chet tilini deyarli ona tilidek talaffuz qila oladi.
2. Tez va oson o‘zlashuv. Bolalar miyasi yangi axborotni o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladi. Bu yoshda til grammatikasi, so‘z boyligi va iboralarni eslab qolish osonroq kechadi.

3. Ko‘p tillilik ko‘nikmasi. Erta yoshda bir necha tilni o‘rgangan bola keyinchalik boshqa tillarni ham osonroq o‘rganadi. Bu tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

4. Aqliy rivojlanishga ta’siri. Chet tilini o‘rganish bolalarning mantiqiy fikrlashi, muammo yechish ko‘nikmalari, e’tibor va xotira qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. O‘ziga bo‘lgan ishonch oshadi. Yangi tilni o‘rgangan bola chet elliklar bilan bemalol muloqot qila oladi. Bu esa o‘ziga ishonch, ochiqlik va yetakchilik qobiliyatini shakllantiradi.

6. Keng dunyoqarash. Yangi til orqali bola boshqa madaniyatlar, odatlar va turmush tarzlari bilan tanishadi. Bu esa uni bag‘rikeng, fikrlovchi va madaniyatlarni hurmat qiladigan inson qilib tarbiyalaydi.

7. Kelajakdagi imkoniyatlar. Erta yoshda til o‘rgangan odamlar xalqaro ta’lim muassasalarida o‘qiy oladi, yaxshi ish topishi oson bo‘ladi, turli davlatlarda ishlash va yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

8. Ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Yangi til o‘rgangan bola turli odamlar bilan muloqot qilishga intiladi, bu esa uning do‘st orttirish, jamoa bilan ishlash va boshqalarni tushunish qobiliyatini oshiradi.

9. O‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi. Erta muvaffaqiyatli til o‘rganish tajribasi bola ichida o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otadi. Bu esa boshqa fanlarga ham ijobiy ta’sir qiladi.

10. Madaniyatlararo aloqalarga tayyor bo‘ladi. Til bilan birga boshqa xalqlarning madaniyati, tarixi va an’analari o‘rganiladi. Bu esa farzandingizni global fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

11. Texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatlari oshadi. Ko‘plab dasturlar, o‘yinlar, ilmiy manbalar va internetdagi resurslar ingliz yoki boshqa xorijiy tillarda bo‘ladi. Tilni bilgan bola ulardan mustaqil foydalanishi mumkin.

Erta til o‘rganishning nafaqat bugungi kun uchun, balki o‘tmishda yashab o‘tgan ko‘plab buyuk insonlar uchun ham bir qancha foydalari bor. Buyuk bobolarimizdan biri Abu Nasr Al-Farobiy ham yoshligidan tillarga katta qiziqish bildirgan va erta yoshdan turli tillarni o‘rganishga kirishgan. Bu esa uning ilmiy merosining boyligi va keng qamrovli bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, u ilmiy va falsafiy asarlarini asosan arab tilida yozgan. Fors tilini esa ona tili sifatida ko‘plab asarlarida ishlatgan. Bundan tashqari, u turkiy, yunon va hind tillarini ham yaxshi bilgan.

Ammo bolalarda erta yoshdan til o‘rganishning ba’zi salbiy tomonlari ham bo‘lishi mumkin, ayniqsa noto‘g‘ri yondashilsa yoki ortiqcha bosim qo‘yilsa. Quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Til aralashuvi (interferensiya). Bolalar bir nechta tilni bir vaqtda o‘rgana boshlaganda tillar orasida aralashuv yuz berishi mumkin — so‘zlar va grammatik qoidalar aralashib ketadi. Bu ayniqsa tabiiy muhitda til o‘rganilmasa yuz beradi.

2. Asosiy tilning kech rivojlanishi. Ayrim hollarda bolalar ona tilini to‘liq o‘zlashtirishda kechikishlar bo‘lishi mumkin, chunki ular ko‘p tillar bilan bir

vaqtda shugʻullanadi. Bu esa kommunikatsiyada muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

3. Psixologik bosim va charchoq. Agar bola til oʻrganishda majburlansa yoki juda koʻp maʼlumot bilan bosim qilinsa, bu stress, charchoq va tilga boʻlgan qiziqishni yoʻqotishga olib kelishi mumkin.

4. Taʼlim sifati va muhitning notoʻgʻri tanlanishi. Til oʻrganish uchun mos muhit boʻlmasa (masalan, til faqat darsda oʻrgatilsa, lekin kundalik muloqotda qoʻllanilmasa), bola oʻrgangan tilni yetarlicha rivojlantira olmaydi.

Bolalarda erta yoshdan til oʻrganishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan shu va boshqa salbiy jihatlarni kamaytirish yoki oldini olish uchun baʼzi tavsiyalarni berish mumkin. Avvalo, tabiiy va qiziqarli muhit yaratish lozim. Til oʻrganish jarayoni bola uchun qiziqarli va oʻyinga oʻxshash boʻlishi kerak. Rasmiy darslar oʻrniga hikoyalar, qoʻshiqlar, oʻyinlar orqali tilga tanishish samaraliroq.

Bosim qoʻymaslik ham eng muhimlaridan biri. Bola tilni oʻrganishda erkin boʻlishi kerak. Majburlash, taʼlim bosimini oshirish tilga nisbatan salbiy munosabatni yuzaga keltirishi mumkin.

Tillarni bosqichma-bosqich oʻrgatish ham birmuncha oson va foydali boʻladi. Bir vaqtning oʻzida koʻp tilni oʻrgatishga urinishdan koʻra, avval ona tilini yaxshi egallashga eʼtibor qaratish va keyin yangi tillarga oʻtish yaxshiroq. Bundan tashqari, ona tilini mustahkamlash muhim. Ona tilini yaxshi bilmasdan boshqa tillarni oʻrgatish qiyin boʻladi. Bola ona tilida mustahkam muloqot qila olishi kerak.

Oʻyin nomi	Izoh
Soʻz topish(Finding word)	Bola yangi soʻzlarni kategoriya boʻyicha(ranglar, hayvonlar,mevalar) aytadi yoki yozadi
Rol oʻynash(Drama games)	Bolalar turli vaziyatlarda rollarni ijro etadi: doʻkonda xarid qilish, maktabda suhbatlashish, sayohat qilish kabi
Soʻz yasash oʻyini(Word building)	Harflardan soʻz yasash yoki iboralar tuzish
Puzzle va jumboqlar(Puzzle)	Tilga oid jumboqli oʻyinlar bola mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.
Elektron oʻyinlar(Electron games)	“Kahoot”, “Wordwall”, “Geopard” va shu kabi saytlarda yaratilgan oʻyinlar bolalarni darsga qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

Doimiy amaliyot va muloqot orqali o'rgangan tillarini kundalik hayotda qo'llash uchun imkoniyat yaratish lozim. Oilada yoki do'stlar orasida tilni ishlatish uni mustahkamlashga yordam beradi. Har bir bolaning til o'rganish sur'ati va qobiliyati turlicha bo'ladi. O'qituvchilar va ota-onalar bola ehtiyojiga mos usul va darajada yordam berishi lozim.

Bu tavsiyalar yordamida bola uchun til o'rganish jarayoni yoqimli, samarali va salbiy oqibatlardan holi bo'lishi mumkin.

Til o'rgatishda o'yinlar ayniqsa yosh bolalar uchun juda samarali va qiziqarli metod hisoblanadi. Turli xil o'yinlar orqali bola yangi so'zlar, iboralar, grammatik qoidalarni o'rganadi va tabiiy ravishda mustahkamlaydi.

1-jadval. Bolalarda til o'rgatishda foydalanish uchun o'yinlar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yoshlikdan tillarni egallash inson rivojlanishining muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayon bolaning nutq rivojlanishi, aqliy salohiyati va madaniy ko'nikmalarini oshirib, uni global dunyoga tayyorlaydi. Shu bilan birga, til o'rganishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar — til aralashuvi yoki ona tilining kech rivojlanishi kabi muammolar — to'g'ri yondashuv va qulay muhit orqali oldini olish mumkin.

Shuning uchun ota-ona va o'qituvchilarning sabr-toqat bilan, bola qiziqishini rag'batlantirib, bosqichma-bosqich til o'rgatishlari juda muhimdir. Natijada, yoshligidan tillarni puxta egallagan shaxslar nafaqat ko'p tilli bo'libgina qolmay, balki keng dunyoqarash va madaniy tushunchaga ega bo'ladi. Bu esa hayotda ularning muvaffaqiyatli inson bo'lishlariga katta turtki bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algeo, J. (2001). *The Origins and Development of the English Language*. Boston: Thomson Wadsworth.
2. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
4. Karimov, N. (2017). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford University Press.
6. Nurmonov, A. (2008). *O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*. Toshkent: Akadernashr
7. Алимova, Д. К. К. (2020). Эффективность системы управления обучением; Moodle в процессе изучения языка. Вестник науки и образования, (12-2 (90)), 67-69.
8. Kupaysinovna, S. G. (2020). New modern approaches in teaching English to students. Проблемы науки, (7 (55)), 61-63.
9. Abulkasimovna, E. Z., & Leonidovna, M. N. (2023, March). THE LEXICAL-SEMANTICAL USAGE OF PROFESSIONAL LEXEMES IN "UTGAN

- KUNLAR”(" PAST DAYS") BY ABDULLA QADIRI. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 20-22).
10. Rashidova, G., & Fariza, N. (2024). THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(3), 93-95.
 11. Rashidova, G., & Munira, I. (2025). THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON LANGUAGE DEVELOPMENT. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(4), 151-154.
 12. SULTONOVA, M. (2024). On the issue of critical thinking.
 13. Erdanova, Z. (2019). Onomastic is a mirror culture. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 149-152).
 14. Ashirova, X., & Mamatkulova, F. (2024). Applying different teaching methods for enhancing the reading skills of elementary learners. O ‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 155-160.